



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

**FARG'ONA VILOYATIDA
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI
FAOLIYATI**
2022- yilda



FARG'ON VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

Madaniyat bu - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

Madaniyat - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.

San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.


Teatr san'ati azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Boshqacha aytganda, spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lsa, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlari samarasini bo'lsa, aktyorlarning bugungi ishi boshqacha. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.

FARG'ONA VILOYATIDAGI MUZEYLAR


Viloyatimizda 2022- yilda jami muzeylar soni 17 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 14 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 285,2 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar soni 207,4 ming kishini tashkil etdi.



Muzeylar soni, *birlik*



Tashrif buyuruvchilar soni,
ming kishi



2022- yilda muzeylar
faoliyati

214 ko'rgazmalar

696 ma'ruzalar

133,2 ekskursiyalar


2022- y.

2021- y.

FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlari mavjud bo'lib, 2022- yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 143,0 mingtani tashkil etgan. Shundan, muzey eksponatlarining 1,6 mingtasi rassomlik, 0,5 mingtasi grafika, 0,2 mingtasi haykaltaroshlik, 7,0 mingtasi amaliy san'at, 11,2 mingtasi numizmatika, 8,6 mingtasi arxeologiya buyumlari, 32,2 mingtasi suratlar, 21,2 mingtasi hujjatlar, 5,7 mingtasi maishiy va etnografik buyumlar va 54,7 mingtasi boshqa eksponatlardan iborat.

**2022- yilda asosiy fond eksponatlari soni,
ming birlik**



FARG'ONA VILOYATIDAGI TEATRLAR

2022- yilda viloyatmizdagi jami teatrlar soni 5 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 2010- yilga nisbatan teatrlar soni 1 taga oshganligini ko'rsatadi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 836 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 146,7 ming nafar kishini tashkil etgan.



2022- yilda teatr faoliyati

	2010 -y.	2015- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Teatrlar soni, <i>birlik</i>	4	4	5	5	5
Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, <i>ming kishi</i>	189,5	176,0	82,5	188,3	146,7


Teatrlarning janrlar bo'yicha taqsimlanishi,
birlik



FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

Teatrlar soni hududlar kesimida tahlil qilinganida, eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona shahri (3 ta teatr) ulushiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rirlarda Qo'qon va Marg'ilon shaharlarida 1 tadan, teatr mavjud. Ushbu teatrlarga tashrif buyurgan jami tomoshabinlar soni 146,7 ming kishini tashkil etdi. Shundan, Farg'ona shahri (80,7 ming kishi), Qo'qon shahri (39,0 ming kishi), Marg'ilon shahri (27,0 ming kishi) tashkil etgan.

2022-yilda tomoshabinlar va spektakllar soni viloyat kesimida



spektakllar

836

146,7 ming

tomoshabinlar

tomoshabinlar, *ming kishi*

spektakllar, *birlik*

FARG'ONA VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI

Viloyatimizda 2022- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 5 ta tashkil etdi. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 165 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni 201,0 ming nafar kishini tashkil etdi.

2022- yilda konsert tashkilotlari faoliyati

	2010- y.	2015- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Konsert tashkilotlari soni, <i>birlikda</i>	2	5	6	4	5
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, <i>ming kishi</i>	33,4	53,1	30,4	169,9	201,0
Konsertlar soni, <i>birlikda</i>	26	113	79	112	165

2022- yilda faoliyat turlari bo'yicha konsertlar soni, *birlik*



FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

2022- yilda konsertlarga tashrif buyuruvchilar soni (faoliyat turlari bo'yicha)

	Konsertlar soni, birlik	Ulardan qishloq aholisi uchun, birlik	Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar soni, ming kishi	Ulardan qishloq aholisi uchun, ming kishi
Filarmoniya	2	-	39,9	-
gastrol-konsert	2	-	80,0	-
mustaqil jamoalar	-	-	-	-
konsert zallari, san'at saroylari	1	-	81,2	-

FARG'ONA VILOYATIDA HAYVONOT BOG'LARI

Farg'ona viloyatida jami 1 ta hayvonot bog'i mavjud. Shu bilan birga, viloyat hayvonot bog'iga 110,5 ming kishi tashrif buyurgan, shundan 61,7 ming nafari bolalardir.

Viloyatimiz hayvonot bog'idagi o'simlik va hayvonot dunyosining xilma-xilligi o'ziga xosligi bilan tashrif buyuruvchilar e'tiborini tortadi. Bu yerda, xususan, hayvonot dunyosi namunalari soni 93 ta, o'simlik dunyosi namunalari soni 13 ta turi mavjud.

2022- yilda hayvonot bog'inining faoliyati

Farg'ona hayvonot bog'ida
93 ta hayvonot dunyosi namunalari, 13
ta o'simlik dunyosi namunalari mavjud.



Farg'ona viloyati
hayvonot bog'inining maydoni



3 ga


FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

2022-yilda hayvonot bog'ining hayvonot dunyosi



2022-yilda hayvonot bog'iga 110,5 ming kishi tashrif buyurgan, shundan 55,8 % (61,7 ming kishi) bolalardir. Undagi ekskursiyalar soni 2022-yilda 25 tani tashkil etib, unda 16,2 mingta mакtab o'quvchilari qatnashgan.

2022-yilda jami qatnovlar, ming kishi



FARG'ONA VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLİSH ISTIROHAT BOĞ'LARI

2022- yilda viloyatimizda 8 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Sundan, Farg'ona shahrida 1ta, Marg'ilon shahrida 1ta, Beshariq tumanida 1ta, Buvayda tumanida 1ta, Quva tumanida 1ta, O'zbekiston tumanida 1ta,Farg'ona tumanida 1ta va Yozyovon tumanida 1 ta madaniyat va istirohat bog'lari joylashgan.

2022- yilda istirohat bog'lari va attraksionlar soni, birlik

Farg'ona sh	51
Marg'ilon sh	24
Beshariq t	1
Buvaydo t	0
Quva t	22
O'zbekiston t	16
Farg'ona t	12
Yozyovon t	6
	1
	0



istirohat bog'lari
umumiy maydoni, ga

46

212,9

madaniyat va istirohat bog'lari

attraksionlar

qatnovlar, ming kishi

10

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Madaniyat — inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Madaniy meros bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

Madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

Moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblilar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

Nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

Diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Farg'on'a viloyati statistika boshqarmasi



Manzil: 150103, Farg'on'a sh.,
Oq yo'l ko'chasi, 104-uy

tel.: +99873 241-98-28



e-mail:fer@stat.uz



www.farstat.uz



facebook.com/farstataxborot

